

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TEMPERAMENT TIPLARI

*Xudoyberdiyeva Baxtigul*

*Samarqand davlat chet tililar instituti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Ochilova Noila Farmonovna*

**Annotatsiya:** Xabarimiz borki, temperament - insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig'indisidir. Ushbu maqolada aynan temperament borasidagi mulohazalar to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlari:** temperament tipi, temperament, emotsionallik, individuallik, xolerik, sangvinik, melankonik, flegmatik, xarakter.

Temperament - bu inson faoliyati va xulq atvorining dinamik va emotional holatini xarakterlovchi shaxs individual xususiyatlarining yig'indisidir. SHunday qilib, temperament 2 qismga bo'linadi. Ular faollik va hissiyotlilik. Xulq atvorning faolligi harakatchanlik, intikuvchanlik tezligi yoki aksincha sustlik va harakatsizlik darajasini xarakterlaydi.

Emotsionallik - hissiyot belgi ijobiy va salbiy, shodlik, qayg'u va g'azabni aniqlagan holda emotional jarayonlar kechishini xarakterlaydi.

Individuallik - bu ma'lum insonning, uning noyobligi betakrorligi nuqtai nazaridan o'ziga xos bo'lgan ruhiy fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar yig'indisidir. Individuallikning asosiy ko'rsatgichlari motivlar temperament, xarakter. Individuallik faqat o'ziga xos xususiyatlar emas balki morfo fiziologiyasi bo'y o'lcham, tana tuzilish, yuz tushirish shu kabi xususiyatlarni o'zida aks ettiradi.

I. P. Pavlov temperamentining quyidagicha ta'riflaydi " Har bir ayrim kishining va shuningdek, har bir ayrim hayvonlarning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har bir individning butun faoliyatlariga muayyan qiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir".

Temperament tiplari 4 turga bo'linadi. Xolerik, sangvinik, melankonik, va flegmatik.

Xolerik - sezgir, tinib - tinchimas agressiv shaxs, ta'sirchan, o'zgaruvchan, umid-ishonchli, harakatchan kishilar. Bunday bolalar o'z istagini qondirish uchun hech narsadan qaytmaydi. Misol uchun, erkalik

qiladi, janjal ko'taradi, qaysarlik qiladi, lekin o'z aytganini qoldiradi. Bolaning ko'ngli podsho deb bejizga aytishmagan. U biron voqea hodisadan tasirlansa uni boshidan oxirigacha aytib beradi. Xolerik mijozli bolalarni " olov qalb" deb ataymiz, chunki juda tez qizishib ketishadi.

Lekin u yaxshi ko'rgan insonlariga mehribon bo'lishadi va qo'lidan kelgancha yordam berishadi. U hattoki rasm chizganida asosan to'q rangli bo'yoqlardan foydalanishadi.

Sangvinik - tez, harakatchan, barcha taassurotlarga emotional javob beruvchi odam, uning hislari bevosita tashqi xulq atvorida ifodalanadi, lekin ular kuchli emas, va bir birini oson almashtiradi. Sangvinik asab tizimining kuchli muttanosib harakatchan tipidir. Bu turdagi bolalar diqqati o'zgaruvchan bo'ladi. Bir narsaga 1 daqiqadan uzoq vaqt jim kuzatib turolmaydi. Kattalar bu turdagi bolalarning harakatchanligidan havotirlanishadi. Lekin baribir ularni yaxshi ko'rishadi. Kayfiyati o'zgaruvchan bo'ladi va har kuni kun tartibini qiziqarliroq o'tgazishi kerak. Biron narsaga etiborini tezda jalb qila oladi, lekin undan juda tez bezori chiqadi. Biror narsaga qiziqib ketsa dunyodagi barcha narsani tezda unitib yuboradi. Biror narsaga vada bersa uni tezda esidan chiqarib yuboradilar. Lekin ularga ko'proq tanbeh berib turish kerak, ammo ular ko'ngliga hech narsani qattiq olmaydilar.

Melanxonik - emotsional kechinmalar xilma xilligining uncha katta emasligi lekin katta kuchga va davomiylikga egaligi bilan farq qiluvchi inson, u barchasiga ham munosabat bildirmaydi. Agar bildirgudek bo'lsa ham chuqur o'ylaydi, o'z hislarini u darajada namoyon qilmaydi. Melonxolik yoshdagi bolalar asosan g'amgin, tashvishli, qo'rquv, yuvosh, mulohaza yoritishga moyil, kelajakga ishonchi yo'q, umidsiz, og'ir, vazmin va bosiq. Bu turdagi bolalar asosan g'amgin bo'lishadi, ularni kuldirish juda qiyin. Ular ko'proq yolg'iz qolishni istashadi. Asosan shovqin suronsiz tinch o'yinlarni afzal ko'rishadi. Bu yoshdagi bolalar o'z yoshiga nisbatan aqlli ko'rinishadi, lekin ularning o'ziga xos "kichkintoy" odatlarini ham ko'rish mumkin. Misol uchun, tirnoqlarini chaynashi bu esa sizning jahlingizni chiqaradi va tanbeh berasiz.

Temperament ustida ishlash o'z temperamentining quliga aylanib

qolmaslik, balki uni idora qila bilish imkonini beradi. Iroda va mustahkam xarakterni tarbiyalash bilan uzviy ravishda bog'lanib ketadi.

Flegmantik - so'z va mutonosib hotirjam odam. Uning emotsional tasirlanishi oson emas va o'zidan chiqarish qiyin his tuyg'ulari deyarli tashqarida namoyon bo'lmaydi. Bu turdagi bolalar ehtiyotkor, aqlli, o'ylab ish qiladi, tinchlikni osoyishtalikni sevadi. Boshqaruvchan, ishonuvchan, nazorat qiluvchan, vazmin va bir tekistda xotirjam qiladi. U o'z diqqatini ma'lum bir narsaga qarata oladi va atrofdagi narsalarga chang'imaydi. Bu turdagi bolalar o'z zimmasiga yuklatilgan ishni shoshilmasdan bajaradi, lekin boshqalarning ishiga nisbatan puxta va pishiq bo'ladi. U yangi joyga va yangi insonlarga moslashib ketishi qiyin kechadi. Tengdoshlari bilan tezda kirishib keta olmaydi. Hamma bunday bolalarni zerikarli deb o'ylashadi. Bu turdagi bolalar kelajakda ota- onasi suyansa va ishonchini oqlaydigan bolalar hisoblanadi. Bunday bolalar ichida tasviriy san'atga qiziqadigan bolalar ko'p bo'ladi.

Xarakter - har bir shaxsning o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Misol uchun maktab o'quvchisi o'z o'rtoqlari uchun kutilmaganda arzimagan narsadan jahli chiqib ketadi. O'rtoqlari uning bu hulqidan taajublanadilar, chunki odatda bu bola yuvosh xushmomila edi. Uning uchun qo'pollik umuman begona hodisa edi.

Xulosa qilib aytganda psixologik tadqiqotlar va pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki temperament tiplari turmush sharoiti va tabiat tasirida bir oz o'zgaradi. Temperamentning o'tish, aralash va oraliq turlari mavjud bo'lib ko'pincha temperament xususiyatlarini birlashtiradi. O'z o'zini tarbiyalash natijasida temperament ham o'zgarishi mumkin. Hattoki, katta yoshdagi insonlar ham o'z temperamentini ma'lum bir yo'nalishda o'zgartirish mumkin. Shuning uchun temperamentning "sof" turlari nisbatan ham uchraydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Polnoye Sobraniye Sochineniy III Tom, 2 kitob, 103 bet.
2. E. G'oziyev. Psixologiya. "O'qituvchi" nashriyot matbaa uyi. Toshkent2008 .
3. M.G. Davletshin, Sh. Do'stmuhammedova, M.Mavlonov, S. To'ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. TDPU. Toshkent- 2004.